

**O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILAR RUHIYATI BILAN ISHLASHNING
MUHIM PSIXOLOGIK VAZIFALARI**

Aminboyeva Rajabgul Otabek qizi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l tumani 60-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘smir yoshidagi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari, ularning ruhiy holati bilan ishlashning muhim vazifalari hamda samarali psixologik yondashuvlar yoritiladi. Shuningdek, o‘smirlik davrida yuzaga keladigan ichki ziddiyatlar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, psixologiya, rivojlanish, emotsiya, motivatsiya, muloqot, moslashuv.

KIRISH

O‘smirlik qachon boshlanadi? O‘smirlik davri 10 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, ko‘pchilik o‘quvchilarda o‘smirlik yoshiga o‘tish asosan 5-sinfdan boshlanadi. O‘smirlik – endilikda bola bo‘lmagan ammo hali balog‘atga ham yetmagan insonning hayotiy davrlaridan biri.

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda shaxsning jismoniy, aqliy va emotsional rivojlanishi tezlashadi, o‘zini anglash va mustaqil fikrlash shakllana boshlaydi. Shu sababli o‘smirlar bilan ishlashda psixologik yondashuv alohida ahamiyatga ega.

O‘smir yoshidagi o‘quvchilar ko‘pincha o‘zgaruvchan ruhiy holatga ega bo‘ladi. Ular ba‘zan tez jahllanadi, ba‘zan esa tushkunlikka tushadi. Bu holat ularning ichki ziddiyatlari va o‘zini anglash jarayoni bilan bog‘liq. O‘smirlar ruhiyati bilan ishlashda birinchi muhim vazifa — ishonchli muloqot o‘rnatishdir. O‘quvchi o‘z muammolarini bemalol ayta oladigan muhit yaratilsa, psixologik yordam samarali bo‘ladi. Ikkinchi muhim vazifa — o‘zini anglashni rivojlantirish. O‘smir o‘z qobiliyatlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini tushuna boshlasa, u o‘z yo‘lini to‘g‘ri tanlay oladi.

Emotsiyalarni boshqarish ham muhim vazifalardan biridir. O‘smirlar o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qilishni o‘rganishi kerak. Bu borada psixologik mashqlar va treninglar yordam beradi. Yana bir muhim jihat — motivatsiyani shakllantirish. O‘smirlar maqsad qo‘yishni va unga erishishni o‘rganishi zarur. Bu ularning kelajakdagi muvaffaqiyatiga asos bo‘ladi.

Konfliktlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ham muhimdir. O‘smirlar tengdoshlar bilan kelishmovchiliklarni to‘g‘ri hal qilishni o‘rganishi kerak. O‘smirlar bilan ishlashda individual yondashuv zarur. Har bir o‘quvchining psixologik xususiyatlari turlicha bo‘lgani uchun, ularga mos usullar tanlanishi kerak. Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar o‘smirning ruhiy

holatini tushunishi va uni qo'llab-quvvatlashi kerak.

O'qituvchilar ham o'smirlar bilan ishlashda sabrli va tushunadigan bo'lishi lozim. Haddan tashqari bosim o'smirda qarshilik va salbiy xulqni keltirib chiqarishi mumkin.

O'smirlik - bu inson hayotidagi qiyin va ayni paytda muhim bosqich hisoblanadi. Bolalik tugaydi va u teng huquqli ishtirokchi sifatida kattalikka kirishga tayyorlanadi. Shubhasiz, o'smir hali jismonan yoki psixologik jihatdan haqiqiy balog'atga yetmagan, ammo shunga qaramasdan kattalar bilan teng huquqli bo'lishga intiladi. Bu davr bolaning o'zi uchun ham, bolaning atrofidagi kattalar uchun ham katta psixologik qiyinchiliklar bilan bog'langandir.

O'smirlik davridagi asosiy qiyinchiliklar tananing fiziologik qayta tuzilishi bilan bog'liq. O'smirlik davri 11-12 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan bolalarning rivojlanish davri hisoblanadi. Shu bilan birga, davr chegaralari "suzuvchi": ba'zi bolalarda fiziologik o'zgarishlar 11 yoshda, boshqalarida ancha keyinroq, 13 yoshda sodir bo'ladi. O'smirlarning fiziologik rivojlanishining o'ziga xos xususiyati nafaqat tez, intensiv, balki tananing organlari va psixologik holatini notekis rivojlanishidir ya'ni o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Fiziologik rivojlanish birinchi navbatda endokrin tizimining ishlashiga bog'liq bo'lib, bu jarayonda gipofiz va qalqonsimon bezlar muhim rol o'ynaydi.

O'smir o'zini qaysi guruhda topishiga qarab, u jamiyatning ijobiy yoki salbiy qahramoniga aylanadi. Agar uning do'stlari yutuqlarga intilishsa, u qabul qilinishi uchun ular uchun intiladi. Agar uning tengdoshlari jinoyatga, yomon odatlarga, maktabdan qochib ketishga qaratilgan "yomon guruh" bo'lib chiqsa, unda hatto eng namunali o'smir ham xuddi shu maqsad bilan - tan olinish bilan guruhga moslasha boshlaydi. Psixologlarning fikriga ko'ra, bolaning ma'lum bir kompaniyani tanlashi uning boshlang'ich manfaatlariga, shuningdek, ota-onasi bilan munosabatlardagi yaqinlik va ishonch darajasiga bog'liq. Agar o'smir o'z oilasida noqulay bo'lsa, u ehtimol "yomon kompaniya" bilan bog'lanadi, chunki unga ular bilan muloqot qilish osonroq bo'ladi. Hatto o'smirda norozilik hissi paydo bo'lsa ham, u qalbida bola bo'lib qoladi va himoya hamda tushunishga muhtoj. O'smirlik davrining boshlanishi bilan otaonalarning o'z farzandiga bo'lgan munosabatini qayta qurish, muloqotning buyruq uslubidan voz kechish va erkinlikning ma'lum bir "qismini" berish vaqti keldi.

Psixologlar inqirozni bartaraf etish va o'smirning psixologik rivojlanishi va xattiharakatlarida qo'pol og'ishlarning oldini olish uchun birgalikda ishlashni maslahat berishadi:

- O'smirning yangi faoliyati va sevimli mashg'ulotlariga qiziqish bildiring, hayotiy vaziyatlarda yuzaga keladigan tushunmovchiliklarni o'z tajribasidan, kitoblaridan, filmlaridan misollar yordamida muhokama qiling.

•Tuyg'ularning shiddatli portlashlariga xotirjam munosabatda bo'ling, negativlikni hazil sohasiga o'tkazishga harakat qiling va ochiq to'qnashuvga kirishish vasvasasiga qarshi turing.

Ishonish va erkinlik berish. Bolaning shaxsiy maydoni bo'lishi kerak. Psixologlar o'smir hayotining barcha jabhalarini, shu jumladan uning telefon suhbatlari va ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotlarini mutlaqo nazorat qilish zarurligiga katta shubha bilan qarashadi. Agar o'smirlikning barcha bosqichlari muvaffaqiyatli yakunlansa, o'g'il va qizlar keyingi hayotda o'z yo'lini va kasbini ishonch bilan tanlaydilar. Ota-onalar bilan munosabatlar tez-tez yaxshilanadi, ammo mojaroning aks-sadolari hali ham saqlanib qolishi mumkin: erkinlik hissi kattalar qaramog'iga qaytish istagiga mos kelmaydi. O'smirlik davridagi ko'plab muammolarning kaliti bolalikdagi nizolar va qo'rquvlarda yotadi. Erta bolalik davridagi xatti-harakatlarga ongsiz ravishda murojaat qilish hal qilinmagan shikoyatlar va qiyinchiliklar bilan ishlashga imkon beradi, shu bilan o'z "men" ni rivojlantiradi, kattalar tomonidan tushunishdagi bo'shliqlarni to'ldiradi va shu bilan o'z hayotini qayta ko'rib chiqadi.

O'smirlik yillari – ota-onalar uchun ham, bolalar uchun ham murakkab davr. Bu yoshda farzandlar o'z fikrini eng to'g'ri deb hisoblashadi. Ota-onalar ham kichkintoy deb hisoblab yurgan bolasining endi o'z fikrini, o'z qarashlarini ayon qilishlarini qabul qilishlari qiyin bo'ladi. Ayniqsa, faqat bolasining g'amida yashaydigan onalarda bu jarayon qiyin kechadi. Bunda ular o'zlarini xuddi endi bolasiga keraksiz bo'lib qolganday his qilishlari mumkin.

Bolalar ham o'zlarini aqlan katta bo'lganday his qilishsa-da, moddiy va jismoniy jihatdan ota-onaga tobe bo'lib qolaveradi. Barcha tushunmovchiliklar shundan kelib chiqadi. O'smir bolalar uchun o'zidan boshqa hamma nohaq. Agar ota-onasi tomonidan uning fikri rad etilsa, bola bu fikrda yanayam qat'iylashadi. Bunday vaziyatda ota-onalar uning fikrini hurmat qilishlarini sezdirishlari va shuning barobarida o'ylagan qarorlarining natijasi haqida maslahatlashishlari kerak bo'ladi. Bunda bolaga savollar berish orqali uni o'ylashga undab, to'g'ri qaror chiqarish imkoniyatini berish lozim.

Har bir ota-ona farzandini turli muammolardan himoya qilishni istaydi. Ammo o'smir yoshda bola o'qishi, maktabi, baholari bilan bog'liq qarorlar qilishi va shu qarorlarining natijasiga javob berishni o'rganadi. Shu joyda ularga erkinlik berilmasa, katta hayotda ham doimo ularni kimdir boshqarishi kerak bo'ladi.

O'smirning jismoniy jihatdan o'sishida jinsiy balog'atga yetish katta rol o'ynaydi, jinsiy balog'atga yetish o'smir organizmi faoliyatida jiddiy o'zgarishlar yasaydi. Jinsiy balog'at natijasida o'smirlarda o'ziga xos psixik holat vujudga keladi. Shuning uchun bu davrda maktab va oilada ta'lim- tarbiya ishlari to'g'ri yo'lga qo'yil- masa, o'smirning yosh fiziologik xususiyatlari xisobga olinmasa, uning xulq atvoridagi salbiy sifatlar ortib borib, bola xarakterining tarkib topishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi

va keyingi hayoti davomida ham o'zgartirish qiyin bo'lgan chuqur iz qoldirishi mumkin. O'qituvchilar, tarbiyachilar, sinf rahbarlari dastavval shuni chuqur anglashlari lozimki, jinsiy yetilish organizmning jismoniy taraqqiyotga ta'sir qilishdan tashqari o'smirning psixik taraqqiyotiga ham albatta ta'sir qiladi. O'smirlarda jinsiy yetilish munosabati bilan shu paytgacha ularga noma'lum bo'lgan va qandaydir ma'noda ular uchun kutilmagan jinsiy moyillik va tegishli fikrlar, xislar, kechinmalar, qarama-qarshi jinsga spetsifik qiziqish, ma'lum mazmundagi kitoblarga, kinofilmlarga, kattalarning gaplariga bo'lgan qiziqishlarning paydo bo'lishi mutlaqo zarur, tabiiy va me'yoriy holdir.

Jinsiy tarbiyaning muhim vositalaridan biri o'smirlar diqqatini odamlar o'rtasidagi intilish munosabatlar doirasidan boshqa ob'ektlarga ko'chirishdir. Bu o'smirlar diqqatining jinsiy kechinmalar ustida to'rejaishini ozaytiradi. O'smirning hayot kechirish tarzi va uning psixik taraqqiyotga ta'siri. kichik yoshdagi o'quvchilardan farqli ravishda o'rta yoshdagi o'quvchilarning hayot kechirish tarzida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Oilada, maktabda va o'quvchilar jamoasida o'smirning mavqei sezilarli darajada o'ziga xos xususiyatlarni yuzaga keltiradi. O'smirlarning oila a'zolari bilan ham yangicha munosabat o'rnatishlari lozim bo'ladi. O'smir shaxsining takomillashuvi va shakillanishiga turtki bo'lgan omillardan biri o'quv faoliyati motivlaridagi sifat o'zgarishlardir.

O'smir endi faqat bilimlar tizimiga ega bo'lish, o'qituvchining maqtovini eshitish va «5» baholarni ko'paytirish uchun emas, balki tengqurlari orasida ma'lum ijobiy mavqeni egallash, kelajakda yaxshi odam bo'lish uchun o'quv motivlari ustuvor bo'lib boradi, lekin o'quv faoliyati motivlari orasida bilish, yangi bilimlarga ega bo'lish motivi kuchsiz bo'lgani sababli, ular maktabga borgisi kelmaydi, o'qishga og'rinib kelib, salbiy xis tuyg'ular va xavotirlik xislarini boshdan kechiradi. Kattalar tomonidan o'smirning yurish turishi, xulqiga javob berish talab qilinadi. O'smirga uning ilgari qondirilib kelinayotgan ehtiyoj va xohishlari endi qondirilmasligi, ularning ko'pidan voz kechish lozimligi uqtiriladi. O'smir qiyinchilik bilan bo'lsada, o'zining yangi mavqeini tushuna boshlaydi, o'z xulqini o'zgartirib unga moslasha boradi.

Maktabda o'smirning mavqei yanada keskin o'zgaradi. Uni endi bir necha o'qituvchi o'qitadi. O'smir oldida har bir o'qituvchining o'ziga xos metod va usullariga moslashish, ularning talablarini anglab, bilib olish kabi murakkab vazifa turadi. Endi o'smir ko'pgina yangi o'quv fanlarini o'rganib olishi kerak bo'ladi.

O'smirning bolalar jamoasiga bo'lgan munosabati ham murakkablashadi. O'smirga o'zining o'qishi, mehnati va xatti- harakatlariga mas'uliyat bilan qarash jamoat topshiriqlarini aniq bajarish, bilim va ko'nikmalarni egallashda reja bo'yicha sistemali ravishda ko'tarila borish kabi avvalgidan ko'ra jiddiyroq talab quyiladi.

O'smirning oiladagi mavqeining o'zgarishi, maktabda o'qishning yangi sharoiti, bolalarning ijtimoiy hayotida murakkab munosabatlar o'rta yoshdagi o'quvchilar

oldiga ko'pgina yangi talablar qo'yadi va ularning butun psixik hayotida yangi qiyinchiliklar tug'diradi. Avval mustahkam o'rnashib qolgan ko'nikma va malakalar yangi hayot kechirish tarziga ko'p jihatdan mos kelavermaydi. Shuning uchun o'smirlarning psixik jihatdan normal hayot kechirishi va o'sishini ta'minlash uchun o'smirlik yoshining o'ziga xos psixologik xususiyatlari e'tiborga olingan ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar qo'llanilishi zarur.

O'smirlik davri qarama-qarshiliklarga boy davrdir. Uni ba'zi olimlar krizislar, tanazzullar davri ham deb ataydilar. Sababi o'smir ruhiyatida shunday inqiroziy holatlar ro'y beradiki, u bu inqirozni bir tomondan o'zi hal qilgisi keladi, ikkinchi tomondan, o'zi hal qilishga imkoniyati, kuchi va aqli yetmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'smir yoshidagi o'quvchilar ruhiyati bilan ishlash murakkab, ammo muhim jarayon bo'lib, u individual yondashuv, ishonchli muloqot va psixologik qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. To'g'ri tashkil etilgan ish o'smirlarning sog'lom shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vohidov M.V. Maktabgacha tarbiya psixologiyasi. T., "O'qituvchi", 1970
2. G'oziev E. Psixologiya. T., "O'qituvchi", 1994
3. Krutetskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. T., "O'qituvchi", 1976
4. Karimova V. Va boshqalar. Mustaqil fikrlash. T., "Sharq", 2000
5. Ahloq-odobga doir hadis namunalari.-T., 1990
6. Ziyonet